

AN'ANAVIY XONANDALIK FANINI O'QITISHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdullayev Lochinbek Tolibovich

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

"Vokal va cholg'u ijrochiligi pedagoglarini tayyorlash" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada an'naviy xonandalik fanini o'qitishda o'zbek xalq musiqasi merosi, uning qadimiy tarixiy ahamiyatga egaligi, an'naviy xonandalik fannini o'qitishda ustoz shogird an'anasi maktablari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada Fattohxon Mamadaliyevning an'naviy xonandalik ijro maktabini o'r ganishga oid yondashuvlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Ijod, xonanda, ushub, mumtoz musiqa, malaka, san'at, dunyoqarash, idrok, ma'naviyat, madaniyat, urf-odat.

Аннотация: В этой статье рассматриваются вопросы преподавания традиционного вокального искусства, культурное наследие узбекской народной музыки, его историческое значение, а также школы наставничества и ученичества в преподавании традиционного вокала. В статье также приведены подходы к исследованию вокальной школы Фаттоххона Мамадалиева.

Ключевые слова: Творчество, певец, стиль, классическая музыка, мастерство, искусство, мировоззрение, восприятие, духовность, культура, традиция.

Annotation: This article discusses the teaching of traditional vocal art, the heritage of Uzbek folk music, its ancient historical significance, and the mentor-student tradition in the teaching of traditional vocal music. Additionally, the article presents approaches to studying the vocal school of Fattokhxon Mamadaliyev.

Key words: Creativity, singer, style, classical music, skill, art, outlook, perception, spirituality, culture, tradition.

Ta'limgarayoni o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiyyatlarini o'stirish, ularning amaliy ko'nikma, malakalari va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, ushbu tushuncha negizida shaxsning tanqidiy fikrlashi, yaratishi, borliqda sodir bo'layotgan hodisalarini o'zaro aloqadorlik nuqtai nazaridan baholay olishi ham aks etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondoshuvlarga muvofiq ta'limgazmuni mohiyatini aniqlashda asosiy qadriyat bilim emas, balki shaxsning o'zi hisoblanadi. Bunday yondashuv shaxsning ta'limgazmuni beradi. Ana shunday mazmunga ega bo'lgan

bilimlardan o‘zbek xalq musiqasi merosi, ulkan ummon kabi xalqimiz ma’naviyatining ohanglarda aks ettirgan xazinasidir. Musiqiy merosimizdan joy olgan namunalar xalqning bilimdon va zukko xonanda-yu sozandalari va bastakorlari tomonidan yaratilib, asrlar osha amaliyotda ijro etilib, avloddan-avlodga o‘tib rivojlanib kelgan. Xalqimizning bu boy va murakkab musiqiy me’rosi azal-azaldan ustozdan shogirdga o‘tib, an’ana tarzda ijro etilib rivoj topib kelmoqda. Bu kabi bilimlarni o‘rganish an’anaviy xonandalik fanini o‘qitishning asosiy masalalaridan biridir. Xalqona urf-odatlarga asoslangan musiqiy madaniyat o‘z- o‘zidan hayot tarzida mutassil davom etib kelgan. Lekin, ma’naviyat darajasi va uning ravnaqi ijodiyot maxsuli bilan o‘lchanadi. Qayerda ijodiyot kerakli meyorda mavjud bo‘lsa bu jarayon milliy an’analarga asoslanib, zamon zayliga moslanib kelgan.

Mumtoz musiqamiz ijodyoti, amaliyoti va ravnaqiga nazar solar ekkamiz, biz buyuk madaniyat sohiblari avlod ekanligimizni ko‘ramiz. Yosh avlod vakillari o‘tmishdan yaratilgan merosni o‘qib, ardoqlab, ijro etib, idrok etib o‘zlashtirsalar zamonga muosib ega bo‘lib yetishishlari begumondir.

Aytish joizki, o‘zbek mumtoz musiqa san’ati og’zaki an’anadagi san’atdir. Musiqiy ohangda mavjud har qanday harakat, ya’ni jilo, joziba, g’oya, mazmun qochirim va bezaklar tinglash orqali idrok etiladi hamda o‘zlashtiriladi. Ularni ravnaqi yo‘lida qilingan har qanday harakat ijodiyot mahsuli demakdir. Shu bois, musiqa azal-azaldan og’zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Buni bizda “ustoz-shogird” an’anasi deb ardoqlashadi. Sharq xalqlari, shu jumladan o‘zbek xalqi qadimiy va boy musiqa an’analariga egadir. Asrlar mobaynida bu noyob musiqa asarlari og’zaki an’anada, ustoz-shogird tomonidan bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Qadimdan hozirgi kunlargacha mahalliy san’at ahli an’anaviy ijodiyotining shakl va navlarini tobora takomillashtirib, uning badiiy barkamol namunalarini avaylab-asrab, yangidan-yangi ijodkorlik sayi-harakatlari ila milliy-ma’naviy boyliklarni doimo ko‘paytira borganlar. San’atkorlar xalqning orzu va umidlarini, quvonch va qayg’ularini jamiki insoniy qalb extiyojlarini yuksak musiqiy idrok bilan tasvirlab borib, kishilarga hamisha ruhiy-ma’naviy ozuqa berishgan. Ular mumtoz musiqa orqali nafosat va ezgulik olamiga tinglovchini oshno qilish istagi bo‘lib, o‘lmas qadriyatlar bilan hamisha bahramand etib kelganlar. Xalq orasidagi xonandalar o‘z o‘rnida ijro etayotgan namunalariga asoslanib nomlanib, atalib kelingan. |Katta ashulachi, mumtoz xonanda va h.k. kitoblarda esa ularni muayyan nomlar, ya’ni an’anaviy xonandalar deb yuritish rasm bo‘lgan.

An’anaviy xonandalik san’ati azaldan muayyan doiralarda qo‘llanib kelingan. Keyingi paytlarada xalqimiz orasida ayniqsa, bilimli ashulachilar oraasida an’anaviy xonanadlik keng ommalashdi. Ularning yirik-yirik janrlardagi ijrolarning keng qamroviligi, ijro talqinining turlanishi, joy va makon an’analarining ahamiyati negizida o‘sib, boyib bordi.

Natijada shaxsiy hamda mahalliy unsurlar bilan xarakterlanuvchi ijro uslublari yuzaga keldi. Andijon, Xorjam, Marg'ilon, Qo'qon xofizlik maktablari, yoki Hamroqul Qori, Xojixon Boltayev, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Mamatbuva Sattarov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Yunus Rajabiy, Fattoxon Mamadaliyev, Orifxon Xotamov kabilar shular jumlasidandir.

Zamonaviy an'anaviy ijrochilikda o'tmish ustozlarining xonandalikda qoldirgan ijro maktablari juda muhimdir. Har bir yosh xonanda an'anaviy ijrochilikni mukammal egallayman desa, albatta ustozlarning ijro uslublarini o'zlashtirishi va ulardan kerakli saboqlarini olishlari juda katta ahamiyat kasb etadi. Biz ustozlarning ijodini o'rganishga qo'l urGANIMIZNING ham boisi shundadir.

An'anaviy ijrochilik yo'nalishida F. Mamadaliyevning yaqin yillarda ham musiqashunoslik istmolida bo'lмаган, aniqrog'i ma'lum bo'lмаган xofizlar ovozi xususiyatlari ilmiy mushohadalari nihoyatda qadrlidir. Bu qo'lyozmani ustoz vafotidan so'ng uning yaqin fikrdoshi musiqashunos R.Yunusov nashrga tayyorlab chop ettiradi. Mazkur risolada muallif "ashulachilik ovozining sifat darajasu hamda ovoz ishlatish yo'llarini hisobga olgan holda bir necha toifalarga" ajratadi va ularni quyidagi nomlarda yuritilganligini belgilab beradi;

- 1) "Nor ovoz"
- 2) "Tik ovoz"
- 3) "Jarangdor kuvrak ovoz"
- 4) "Kuyuk tik ovoz"
- 5) "Buzak ovoz"
- 6) "Pang ovoz"
- 7) "Ishkami ovoz" va ularnihg ayrimlariga qisqachs tavsif beradi.

Musiqa ijrochiligi amaliyotida Fattoxon Mamadaliyev xofizlik, ya'ni xonandalik bilan birga an'anaviy musiqa bastakorligiga ham katta e'tibor berib ijod etgan bastakorlarimizdandir. U xalq musiqa ijodiyotining turli yo'balishlarida ijod etgan. Ya'ni, o'tmish xonanadlarimiz an'analariga xos bo'lган qadimiy kuylarni tiklash, an'anaviy asarlani yangicha zamonaviy uslubda talqin etish, mumtoz asarlarni muayyan tartibga solib turkumlashtirish va albatta ya'ni original asarlar yaratish. Natijada, Fattoxon Mamadaliyev o'z ijodida bir qator yangi asarlar yaratishga tuyassar bo'lган.

Xulosa qilib aytganda o'tmish musiqiy an'analarini, ijrochilik maktab namoyondalarining ijro an'analarini o'zlashtirish yosh avlodning o'zlashtirishi lozim bo'lган amallaridan bo'lishi lozim. Shuning uchun ustozlarni hayotiy ijodini o'rganish, ularni ijrochilik uslubini o'rganib borish biz yoshlarning oldimizda turgan vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamidov H. O‘zbek an’anaviy qo‘sishqchilik madaniyati tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 56 b.
2. Xonandalik san’ati. Jahon va o‘zbek milliy an’analari. – T.: San’at, 2009. – 248 b.
3. Z.R.Suyunova. “Mumtoz musiqiy namunalarni o‘rganishga ilmiy-nazariy yondashuvlar” // Pedagogika. №6/2024 ISNN 1076-1077.

ISLOMDA TARBIYA MASALALARI

Sobirova Nasiba Ergashovna

Filologiya fanlari doktori

Mamadshoyeva Farog‘at Furqatovna

Osiyo xalqaro universiteti ijtimoiy fanlar va texnika fakulteti

Pedagogika mutaxassisligi bo‘yicha MM-4 P-24 magistri

Annotatsiya: Inson hayotda o‘z o‘rnini topishi, ikki dunyo saodatiga erishishi, yurtining taraqqiyotiga hissa qo‘sishi va shu vatanga munosib bir farzand bo‘lishini ta’lim-tarbiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Buni biz qushning ikki qanoti bo‘lmasa osmonga ko‘tarilib, ko‘klarga parvoz qila olmaganiga qiyoslasak bo‘ladi. Shuning uchun ham dinimizda ta’lim-tarbiyaning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligiga va farzandni kamol toptirishda bu ikki narsani uyg‘unlikda olib borishga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: islam ,tarbiya akliy, ruxiy,inson, iymon, mukaddas din, ma’rifatparvar.

Kirish:

Alloh taolo “Tahrim” surasining 6-oyatida: “Ey iymon keltirganlar! O‘zingizni va ahli ayolingizni yoqilg‘isi odamlaru toshdan bo‘lgan olovdan saqlang”, deb marhamat qiladi. Inson o‘zini, ahli ayolini va o‘zidan bino bo‘ladigan ahllarini qanday qilib olovdan saqlashi mumkin? Bu saqlash, avvalo o‘zidan so‘ng ahllaridan jaholatni ketkazib, dunyo hayotida oqibati olovga olib boradigan turli jinoyatu gunohlardan, nodonligu badxulqliklardan ta’lim va tarbiya vositasida saqlash bilan bo‘lar ekan.

Ta’lim-tarbiyaning o‘rtasida ochiq-oydin farq bor. Ta’lim, tarbiyaning bir juz’iy. Tarbiya esa ta’limni o‘z ichiga oladi, aksincha emas. Demak, tarbiya o‘z-o‘zidan ta’limga nisbatan komil va keng qamrovlidir. Islomiy tarbiyaning ma’nosi esa jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish va albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o‘z ichiga oladi. Zotan, Allah taolo insoniyatni yer yuzini obod qilish uchun yaratgan. Demak, u o‘zining vazifalarini ado etishi uchun har taraflama komil va yetuk bo‘lishi kerak. Buning uchun esa bizning dinimiz Islomda barcha ko‘rsatma va imkoniyatlar mavjud. Eng asosiysi, inson o‘zining oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish asnosida doimiy holda Allahga yuzlanib turishi tarbiyadir.

Kishilik jamiyatida inson psixologiyasi, uning ruhiy kamoloti haqida qadimdan turli qarashlar mavjud. Bu mavzu bugungi kunda ham katta ahamiyatga egaligi hech kimga sir emas. Muqaddas dinimiz Islomda bu sohaga ham alohida e’tibor berilgan va eng to‘g‘ri qarashlar ko‘rsatilgan. Bu borada ayniqsa naqshbandiya tariqatinig tutgan o‘rni beqiyos. Ularni o‘rganib, xalqimiz e’tiboriga havola qilish, o‘sib kelayotgan avlodni shu ta’limotlar asosida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Asosiy qism:

— Tarbiya haqida gap ketganda o‘tgan asrning boshlarida xalqimizning jonkuyar ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning bir gapi beixtiyor yodga tushadi: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Darhaqiqat, tarbiya sababli davrlar va xalqlarning kelajagi belgilanadi, u har bir jamiyatning jon tomiri, oliy qadriyati hisoblanadi. Keljak avlod – farzandlarimizning biz orzu qilgandek bilimli, hunarli, el-yurtga foydasi tegadigan, oqil insonlar bo‘lib yetishishi, avvalo, tarbiyaga bog‘liq. Farzand Alloh taoloning insonga bergen oliy ne’matlaridan biri bo‘lib, ota-onha hayotining davomchilari hisoblanadi. Har ne’matning o‘z shukri bor, farzand ne’matining shukri unga chiroysi tarbiya berishdir. Bu xususda Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: **“Ota-onha o‘z farzandiga chiroysi xulqdan ko‘ra afzalroq narsani berolmaydi,”** deganlar.

Tarbiyani tor doirada tushunmaslik lozim. Ota-onha zimmasidagi burch farzandga faqat chiroysi odob-axloq o‘rgatishdan iborat emas, balki uni turli xil mafkura mafkura va g‘ayriinsoniy yot g‘oyalardan saqlashi kerak. Chunki e’tiqodi sog‘lom, mafkurasi to‘g‘ri bo‘lgan farzandgina ota-onaga mehribon, el-yurtga sadoqatli fidoyi inson bo‘lib voyaga yetadi.

Farzand tarbiyasi bilan uning go‘daklik davridanoq, hatto dunyo yuzini ko‘rmasidan avval shug‘ullanish lozim. Xalqimiz qadimdan tarbiyani ko‘pning ishi deb bilgan. Ezgulik, yaxshilik, odob-axloq kabi insoniy fazilatlarni muqaddaslashtirib, har bir yigit-qizga yoshlikdan shu qoidalarga amal qilishni o‘rgatib, nazorat etib borgan.

Tarbiyaning eng muhim talablaridan biri shaxsiy namuna, oila ibratidir. Ota-onha, kattalar, qariyalar, aka-ukalar, qarindosh-urug‘larning oiladagi mavqeい muhim ahamiyatga ega. Yaxshi farzandni, avvalo, yaxshi oila, yaxshi ota-onha tarbiyalaydi. Xalqimizning qadriyatlari rang-barang bo‘lib, har biri yaxlit bir asardir. Xalqimizning “Bir bolaga yetti mahalla ota”, degan hikmatli so‘zlarining zamirida olam-olam ma’no bor. Bugungi kun yurtimizda barkamol avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Milliy qadriyatlarimiz asosini ma’naviyat tashkil etadi, ma’naviyat esa tarbiya demakdir. Ma’naviyat bilan insonning imoni, e’tiqodi, axloqi, ichki dunyosi shakllanib sayqal topadi. Insonni Vatan, xalq, ota-onha, qavm-qarindoshlar oldidagi burchlarini anglashi uning naqadar yuksak ma’naviyat sohibi ekanidan dalolat beradi.

Milliy qadriyatlarimiz bilan chambarchas bog‘lanib ketgan muqaddas dinimizda ham farzand tarbiyasiga alohida e’tibor beriladi. Ulamolarimiz farzand tarbiyasini to‘rt qismdan iborat ekanligini bayon qilgan:

1. E’tiqod tarbiyasi. Farzand tug‘ilib, uning aqli shakllana boshlagan vaqtadan to voyaga yetib, mustaqil hayotga qadam qo‘yguncha unga imon-e’tiqod masalalari, ota-onaga hurmat, vatanga sadoqat tuyg‘ulari singdirib boriladi. Bu haqda Payg‘ambarimiz

sollallohu alayhi vasallam ham bu to‘g‘rida shunday deydilar: “**Har bir tug‘iladigan farzand Islom fitratida tug‘iladi, toki tili gapiradigan bo‘lguncha (shu holda bo‘ladi). Keyin esa ota-onasi uni yo yahudiy, yoki nasroniy, yoki majusiy etib voyaga yetkazadi**”. (Olti sahif mualliflari rivoyat qilishgan).

2. Jism tarbiyasi. Ota-onan farzandning jismonan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishiga ham mas’ul bo‘lib, bunda bolaning yetarli miqdorda to‘g‘ri ovqatlanishi, kiyinishi, yotib-turishi va jismoniy mashg‘ulotlariga e’tibor qaratish lozim. Farzandning ruhan va jismonan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi nafaqat uning kelajagi, balki butun millat kelajagini ta’minalash ekanini aslo yoddan chiqarmaslik lozim. Sog‘lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir. Farzandga chirolyi tarbiya berib, hunar o‘rgatib, ruhan kuchli va e’tiqodi sog‘lom holda voyaga yetkazish bilan birga ularni jismonan baquvvat qilib voyaga yetkazish ota-onaning eng muhim burchlaridandir. Zero, Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam ham: “**O‘g‘illaringizga suvda suzishni, kamonda otishni, qizlaringizga esa tikishni o‘rgatinglar**”, deb farzandlarni chaqqon, sog‘lom, baquvvat, ziyrak va hunarli qilib tarbiyalashga targ‘ib qilganlar. Chunki sog‘lom va kuchli inson har doim o‘z eliga, vataniga naf keltiradi.

3. Axloq tarbiyasi. Yoshlar barcha sohada yetakchi bo‘lishlari uchun eng avvalo, odob-axloqli bo‘lishi lozim. Chunki odob dunyo va oxirat ne’matlariga yetkazuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu barcha dinlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Qur’oni karimda ham, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hadislarida ham odob axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Xususan, payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “**Ota-onan o‘z farzandiga chirolyi xulq (odob)dan afzalroq narsani meros qilib qoldira olmaydi**” “**Farzandlaringizni hurmat qilinglar va odoblarini chirolyi qilinglar**”, deb marhamat qilganlar.

Bizni o‘ziga suyukli banda, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga ummat qilgan Allohga hamdu sanolar bo‘lsin. Allohim bergan ne’matlar ichida, farzand ne’mati bizga berilgan ulug‘ ne’matdir. Bu berilgan ne’matlarni chirolyi xulqda tarbiyalash ota onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. Tarbiya so‘zi arabcha "Robba" fe’lidan olingan bo‘lib, o’stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma’nolarini bildiradi. Islomda bola tarbiyasi ota onaning eng ma’suliyatli va uzoq davom etadigan burchidir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga yetadi. Ammo tarbiya ma’suliyati bardavom bo‘ladi. Zotan ota onaning farzand ne’matiga xaqiqiy shukrlar xam aynan ma’suliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi. Farzand ne’matiga amaliy shukr qilish o‘sma farzandni Alloh taologa itoat qiladigan banda qilib tarbiyalash bilan yuzaga chiqadi. Farzand tarbiyasida ota onaning o‘rni qanchalar katta ekanini Rasululloh (sallallohu alayhi vasallam) qo‘yidagi xadisi shariflaridan bilib olamiz. Abu Xurayra (roziyallohu anhu) dan rivoyat qilinadi. Nabiyyi

(sollallohu alayhi vasallam): "Xar bir tug'ilgan bola faqat fitrat (sof tabiat) ila tug'iladi. So'ng ota onasi uni yahudiy yoki majusiy qiladi. Bu xuddi hayvonning bus butun hayvon tug'ishiga o'xshaydi. Siz unda qulqoq burni kesilganini his qilganmisiz dedilar. Alloh taolo bu dunyodagi narsalarni sababiyat qonunlari ila bir biriga bog'lab qo'ydi. Och odam taom yemasa qorni to'ymaydi. Xuddi shuningdek tarbiya bo'lmasa, inson tarbiya ko'rgan bola bo'lib voyaga yetmaydi. Farzandlarimizni ilmli, tarbiyalii, salohiyatlil farzandlardan qilsin.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar ota-onas o'sha farzandlarini yoshligidanoq tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lib, yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalansa, ta'lim-tarbiyani o'z vaqtida berganda, yoshlarimiz shunday yomon holatlarga tushib, yoshliklarini badnom qilmagan, balki o'z yurtiga munosib, ajdodlariga haqiqiy voris bo'lishar edilar. Hozirgi axborot dunyosi bir-biri bilan qorishib ketgan "globallahuv" deb atalgan davrimizda farzandlarimizga yaxshini yomondan, oqni qoradan ajrata olishga o'rgatish, avvalo ota-onas va maktabdagisi ustoz pedagoglar oldida turgan eng muhim vazifadir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. "Sog'lom bola" kitobidan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf
2. Oilada farzand tarbiyasi: Yetti kunga yetti kitob,
3. Ziyovuddin MIRSODIQOV, Toshkent shahridagi "Bo'ta buva" jome masjidi imomxatibi
4. www.ziyonet.uz
5. Sobirovich, T. B. (2024). The National Idea as a Driving Force behind Ideospheric Transformation in Uzbekistan: Exploring its Implications and Impact. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 8(3), 170-176.
6. Sobirovich, T. B. THE SPIRIT OF A NEW ERA: THE IDEOSPHERE GUIDING UZBEKISTAN TOWARDS DEMOCRACY.
7. Turdiev, B. (2024). THE PRIORITY OF HUMAN INTERESTS IN UZBEKISTAN'S IDEOSPHERIC DEVELOPMENT. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 3(15), 120-123.
8. Sobirovich, T. B. (2024). Renewal of Societal Ideosphere: An Analytical Study of Medieval Philosophical Thought. Philosophy, 8(3), 12-18.
9. Sobirovich, T. B. (2020). The development of democratic society and spiritual renewal in the views of Eastern and Western thinkers. International journal of advanced research and review, 5(10), 60-65.

10. Turdiev, B. S. (2024). Balancing national and universal perspectives: the dialectical dynamics in society's ideosphere. Asian Journal of Basic Science & Research, 6(3), 59-65.
11. Sobirovich, T. B. (2024). The Dynamics of Ancient Thought: How Philosophies Shaped Changing Societal Ideospheres. Dynamics, 8(3), 19-24.
12. Turdiev, B. (2024). BUILDING A FUTURE: THE ROLE OF CULTURE IN NEW UZBEKISTAN'S IDEOSPHERE. Академические исследования в современной науке, 3(31), 171-176.



TIKUVCHILIK SANOTIDA TRIKOTAJNING TUTGAN O'RNI.

Qazakova Anorxon Rizoqulovna

Navbahor tuman kasb-hunar maktabi

ishlab chiqarish ta'limi ustasi:

Annotatsiya. *Mazkur maqola tikuvchilik sanoatida trikotaj materiallarining ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. Trikotaj matolari zamonaivi kiyim-kechak sanoatida keng qo'llanilmoqda. Uning asosiy qfzalliklari – elastiklik, qulaylik, nafas oluvchanlik va turli xil dizayn variantlari yaratish imkoniyatidir. Maqolada trikotajning texnologik jarayonlari, uning ekologik jihatlari, shuningdek, zamonaivi ishlab chiqarish tendensiyalari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, tikuvchilik sohasida trikotaj materiallaridan foydalanishning istiqbollari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Trikotaj, tikuvchilik sanoati, elastiklik, ekologik toza materiallar, zamonaivi texnologiyalar, kiyim-kechak, mato ishlab chiqarish, moda industriyasi.*

Bugungi kunda Respublikamizda to'qimachilik va yengil sanoat rivojlanishi uchun katta miqdordagi tabiiy xom ashyo resurslari mavjud. Ushbu resurslardan foydalanib yuqori sifatli va raqobatbardosh tikuv va trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish davlatimiz iqtisodiyotining etakchi yo'nalishlaridan biridir.

Yuqori sifatlari tikuv va trikotaj buyumlarini loyihalash, ishlab chiqarish shu buyumlarni ishlab chiqarishga qodir va malakali kadrlarni tayyorlash muhim vazifadir. Bular kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzlusiz ta'limning mazmuniy va tashkiliy rivojlanishiga doir strategik yo'nalishga asoslangan holda aniq belgilangan.

Trikotaj - (fransuzcha «tricotage», ya'ni «tricoter» - to'qimoq) bir yoki ko'plab iplarning trikotaj mashinasida hosil qilingan halqalarning o'zaro chalishishidan hosil qilingan materialdir. Boshqa to'qimachilik mahsulotlaridan farqli ravishda trikotaj barcha yo'nalishlar bo'yicha cho'ziluvchan bo'lib, shakl va o'lchamlarini o'zgartirish xususiyatiga ega. Uning halqalardan tashkil topgan tuzilishi trikotajda yumshoqlik va g'ijimlanmaslikni ta'minlaydi. Trikotaj shuningdek sun'iy mo'yna, to'rlar va shu kabi turli mahsulotlarni ishlab chiqarishda keng qo'llanadi.

Trikotaj tolaviy tarkibi, tuzilishi, pardozlash va mo'ljallanganligiga ko'ra sinflanadi. Ishlab chiqarishda asosan paxta, jun, kamyoviy tolalardan, hamda ularning aralashmasidan foydalaniladi va bir turdag'i tolalardan, aralash tolali va har xil turdag'i tolalar aralashmasidan to'qiladi. Trikotaj buyumlar havo va namlikni oson o'tkazuvchanlik xossasiga ega bo'lib, ularni ishlab chiqarishda matolarga nisbatan sintetik xom ashyo ko'p qo'llanadi. Tuzilishiga ko'ra ko'ndalang (kulirli) va tik to'qilgan, bir fonturli va ikki fonturli trikotaj farqlanadi. Ikki fonturli trikotaj qalinroq va

og'irroq bo'lib, ziylari buralib qolmaydi, asosan ustki kiyimlar ishlab chiqarishda qo'llanadi.

To`quvni rivojlanishini o`rta asrlarning ikkinchi yarmidan kuzatish mumkin. XV-XVII Asrlarda kapitalistik ishlab chiqarishning keskin rivojlanishi boshlanadi.

XV asrning oxiridan boshlab to`quv buyumlarining ilk namunalari - paypoqlar va qo'lqoplar to`qila boshladi.

1798 yil Fransiyada birinchi aylana trikotaj mashinasi ixtiro etilgan. Shu davrdan boshlab qo`lda to`qilgan buyumlar bilan bir qatorda to`quv mashinasida to`qilgan buyumlar ham qo'llanib kelinmoqda. Bunga XIX va XX asrlardagi jurnallardan bilib olishimiz mumkin.

Qo`lda turli sviterlar, yoping`ichlar, bolalar jemperlari va hokazolar to`qilgan.

Kiyimdagagi naqshlar xilma-xilligi, tola ranglari va ilmoqlar to`qimi bilan erishilgan.

Qo'l bilan to`qish vaqtida buyum tayyor shaklda (paypoq, qo'lqop) yoki uning alohida qismlari (kiyimning old va ort bo'laklari, yenglari) to`qilgan.

Keyinchalik trikotaj mashinalarining rivojlanishi bilan metrajli trikotaj matolar va aylana matolar ham olingan.

Dastlab trikotaj buyumlari assortiment paypoqlar, qo'lqoplar, bosh kiyimlari bilan cheklangan keyinchilik ich kiyimlari va sport kiyimlari ishlab chiqarish boshlangan. Keyingi bosqichda bu assortimentga ayollar, erkaklar va bolalar jiletlari, jemperlari, poluverlari qo'shiladi.

Trikotaj ishlab chiqarishning asosiy xususiyatlari texnik taraqqiyotda to`quv jihozlarining yuqori samarodorligi va turli tolalarga ishlov berishning keng imkoniyatlaridan iborat.

Trikotaj sanoati xodimlarining asosiy vazifalari buyumlar assortimentini kengaytirish va kiyim sifatini yaxshilashdan iborat. Bu maqsadga yangi turdag'i trikotaj tolalarmi ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini takomillashtirish, zamonaviy estetik talablarga javob beradigan trikotaj buyumlarini loyihalashni va ko`plab ishlab chiqarishni yaxshilash yo`li bilan erishish mumkin.

Trikotajga bo'lgan ihtiyoj yuqori bo'lganligi sababli bizning Navbahor tumanida ham uchta tikuv korxonasi qurildi. Navbahor "Kasaba chevarlar" MChJ, "Qorojon tekstil", "Mengi tekstil" O'zbekiston va Turkiya qo'shma korxonasi trikotaj buyumlarini ishlab chiqarib xalq ihtiyojini qondiryapti va chet davlatlarga eksport qilmoqda.

Navbahor "Kasaba chevarlar" MChJ da 400 nafar xotin-qizlar, "Qorajon tekstil"da 350 nafar xotin-qizlar, "Mengi tekstil" O'zbekiston va Turkiya qo'shma korxonasida 400 nafar xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi. Bundan xotin-qizlarimiz juda ham xursand. Ishsiz xotin-qizlarimiz ish bilan ta'minlandilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova G. "Zamonaviy matolar texnologiyasi." "Fan" nashriyoti, 2021.
2. Avazbek, O. R. (2024). OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINING KASBIY KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Interpretation and researches*, 2(19), 108-111.
3. Куденов, Т. М. (2023, July). РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОЙ УЧЕБНОЙ СРЕДЕ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 8, pp. 7-11).
4. Makhsetbaevich, K. T. (2023, July). PROCESSES OF IMPROVING INDEPENDENT KNOWLEDGE ACTIVITY IN THE INFORMED EDUCATIONAL ENVIRONMENT. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 8, pp. 26-29).
5. Toirova, U. S. (2019). Semantic determination of the noun. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11 (79), 139-143.
6. Toirova, U. (2022). ВЕРНОСТЬ В ИСТОРИЯХ" КАРАКОЗ МАДЖНУН" С. АХМАДА И" ХАТИКО" ПАМЕЛЛЫ СТАРНЕР В ЗООСЕМА" ИТ". ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 15(15).
7. Sobir, U. (2024). HARBIY PEDAGOGIK JARAYONDA TINGLOVCHILARNING AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *Interpretation and researches*, 2(18), 69-71.
8. Sidiqova, D. (2023). MASOFAVIY TA'LIM TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 31(31).
9. Жайнаров, Н. Ф. (2023). ЮҚОРИ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИК-ЖАНГАВОР ШАЙЛИКНИНГ АСОСИ. *Scientific progress*, 4(5), 229-232.
10. Bobomuratov, I. B. (2024). Preparing for the Competition of the Military Sports Complex Athletics. *Miasto Przyszlosci*, 55, 414-417.
11. Jasurbek G'ofur o'g, S. (2024). TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 2(4), 500-507.
12. Тураев, Б. Ш. (2022). СОЦИАЛЬНО-ГИГИЕНИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РИСКА, ВЛИЯЮЩИЕ НА РЕПРОДУКТИВНОЕ ЗДОРОВЬЕ МУЖЧИН. *ББК 51.1 Г54*, 30.
13. Mamatqulov, B., Tolipova, G., & To'Rayev, B. (2023). VACCINATION AND CONTRAINDICATIONS BASED ON THE NATIONAL IMMUNIZATION CALENDAR AND THEIR BASIS. *Science and innovation*, 2(D11), 316-321.
14. Nematov, A. A. (2023). ORGANIZATION AND PERSPECTIVES OF THE SANITARY EPIDEMIOLOGICAL SERVICE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (Doctoral dissertation).
15. Urazaliyeva, I., Nematov, A., & Tolipova, G. (2023). ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ COVID-19 И ВИДЫ МЕДИКО-СОЦИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ ОКАЗЫВАЕМОЙ БОЛЬНЫМ.

16. Nematov, A. A. (2023). Risk Factors for Patients Severe and Critical with Covid-19. *European Journal of Medical Genetics and Clinical Biology*, 1(5), 17-20.
17. Saxob, A. (2024). MUHANDISLIK QO 'SHINLARI MUTAXASSISLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TA'LIM-TARBIYA TIZIMINING AHAMIYATI. Interpretation and researches, 2(19), 99-102.
18. Botir o'g'li, R. S. (2024). CRIMINAL LIABILITY FOR FRAUDULENT ENTREPRENEURSHIP. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(12), 94-97.
19. Sharipova, E. (2024). REVIEW OF THE EFFECTIVENESS OF STATINS TO PREVENT OF HYPERLIPIDEMIA IN PATIENTS UNDER 40. *Research and Publications*, 1(1), 64-71.
20. Муминова, Н. А. (2016). Применение тестовых заданий на уроках родного языка в начальных классах. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (5), 153-155.
21. Аҳмедова, В. А. МУСТАКИЛЛИК ДАВРИ ЎЗБЕК ДРАМАТУРГИЯСИДА АМИР ТЕМУР ОБРАЗИНИНГ БАДИЙ ТАЛКИНИ. *ILIM hám JÁMIET*, 60.
22. Saidmusayev, J. (2022). Improvement of the legislation of the Republic of Uzbekistan on the liberalization of the foreign trade regime for accession to the WTO. *TSUL Legal Report International electronic scientific journal*, 3(2), 55-61.
23. Jasurbek G'ofur o'g', S. (2024). TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 2(4), 500-507.
24. Shadmanova, N. E., & Yarmatova, M. A. (2018). DIALOGUE IN RUSSIAN LESSONS. *Modern Science*, (4-2), 128-130.
25. Гафурова, С., & Юсупхаджаева, С. (2023). ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НЕВРОТИЧЕСКИХ РАССТРОЙСТВ ПРИ СИНДРОМЕ РАЗДРАЖЕННОГО КИШЕЧНИКА И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕДИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ ПРИ НИХ. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(19).
26. Hamraev, B., & Maxamatjanova, N. (2023). ETIOLOGY AND EPIDEMIOLOGY OF SEXUAL DISEASES. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 2(3), 45-46.
27. Barziyev, O. H.(2021) Фарғона номи билан борлик анъанавий поэтик туркмлар. *НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ*, 3(3), 108-114.
28. Radjabova, D. (2024). PIRIMQUL QODIROVNING" YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 45(45).
29. Kamilov, F. B. (2024). Tactics of the Peoples of Central Asia in the Middle Ages. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 636-643.
30. Холдаров, А. Й. (2024). ОСОБЕННОСТИ ТАКТИКИ ЗАВОЕВАНИЯ ГОРОДОВ И КРЕПОСТЕЙ АМИРОМ ТЕМУРОМ. *Gospodarka i Innowacje.*, 52, 440-444.
31. Камилов, Ф. Б. (2024). ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИНИНГ АҲМОНИЙЛАРГА ҚАРШИ КУРАШЛАРИ ДАВРИДА ҲАРБИЙ САНЬАТНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. *Indexing*, 2(12).
32. Sheraliyeva N. "Tricotaj materiallari va ularning xususiyatlari." O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.
33. Rustamov A. "Tikuvchilik texnologiyalari asoslari." Toshkent, 2020.

